



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG'-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

QAROR

2025-yil "31" 01

2 - son

Toshkent shahri

**Yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish, undan foydalanish
va muhofaza qilish sohasidagi yo'riqnomalar va uslubiy tavsiyalarni
tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Yer qa'ri to'g'risida"gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Metall foydali qazilmalar zaxiralari hisoblashga oid materiallarning tarkibi, rasmiylashtirilishi va ularni O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha davlat komissiyasiga taqdim qilish tartibi to'g'risida yo'riqnomma 1-ilovaga muvofiq;

Nometall foydali qazilmalar zaxiralari hisoblashga oid materiallarning tarkibi, rasmiylashtirilishi va ularni O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha davlat komissiyasiga taqdim qilish tartibi to'g'risida yo'riqnomma 2-ilovaga muvofiq;

Mis ma'danli konlariga zaxiralar tasnifini qo'llashga oid yo'riqnomma 3-ilovaga;

Temir ma'danli konlariga zaxiralar tasnifini qo'llashga oid yo'riqnomma 4-ilovaga;

Ko'mir va yonuvchi slanets konlariga zaxiralar tasnifini qo'llashga oid yo'riqnomma 5-ilovaga;

Talk va pirofillit konlariga zaxiralar tasnifini qo'llashga oid yo'riqnomma 6-ilovaga;

Manganets ma'danli konlariga zaxiralar tasnifini qo'llashga oid yo'riqnomma 7-ilovaga;

Niobiy va tantal ma'dan konlariga zaxiralar tasnifini qo'llashga oid yo'riqnomma 8-ilovaga;

O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi muassasa va tashkilotlarda geologik kolleksiya materiallarini hisobga olish va saqlash bo'yicha yo'riqnomma 9-ilovaga;

Ma'dan konlarida namuna olishning vakilliligi va ishonchlilagini baholash bo'yicha uslubiy tavsiyalar 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha davlat komissiyasi ishchi organiga (A.Ibragimov) Geologik materiallarni ko'rib chiqishda 1-band bilan tasdiqlangan yo'riqnomalar qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish yuklansin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir

B. Islamov

